

R.B. YARMATOV

MUZEYLAR VOSITASIDA
O'QUVCHILARDAGI IQTIDORLARNI
RO'YOBGA CHIQRARISH YO'LLARI



TOSHKENT

**A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

RAXIMBOY YARMATOV

**MUZEYLAR VOSITASIDA
O‘QUVCHILARDAGI
IQTIDORLARNI RO‘YOBGA
CHIQRISH YO‘LLARI**

(Monografiya)

TOSHKENT – 2016

UO‘K: 631.524.84

KBK 74.5

Ya-21

Ya-21 R.Yarmatov. Muzeylar vositasida o‘quvchilardagi iqtidorlarni ro‘yobga chiqarish yo‘llari. –T.: «Fan va texnologiya», 2016, 176 bet.

ISBN 978–9943–983–94–6

Monografiyada ilk bor mustaqillik davrida O‘zbekistonda muzeylarning tashkil etilishi va ularning o‘zbek davlatchilik tarixini o‘rganishdagi ahamiyati o‘rganilgan. Tadqiqotda mustaqillik yillarida Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida muqaddas qadamjolar, tashkil etilgan muzeylarning nomlari, maqsad va vazifalari yoritilgan.

Monografiya oliy o‘quv yurti talabalari, professor-o‘qituvchilari va muzeylar sohasi bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 631.524.84

KBK 74.5

Taqrizchilar:

F.A.Axmedshina – t.f.d., professor;

R.G‘.Safarova – p.f.d., professor.

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti ilmiy Kengashining 2014-yil 29-avgustdagi qaroriga asosan chop etildi.

ISBN 978–9943–983–94–6

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016.

Muzey - xalq tarixining ko‘zgusi ekanligini nazarda tutsak, u shu xalqning farzandlari - kelajak avlod qalbida faxr-iftixor tuyg‘usini uyg‘ota olishi kerak.

Bizning vazifamiz esa buyuk tariximizni mana shunday ma’rifiy maskanlar yordamida avlodlarimizga to‘laligicha yetkazib berishdan iborat.

I.A.Karimov

KIRISH

Xalqimiz mustaqillikka erishgach, O‘zbekiston hududida joylashgan muzeylar faoliyatini takomillashtirish ishlari boshlandi. Ular xalqning ma’naviy-axloqiy kamolotida yanada muhim o‘rin egallay boshladi. Qadriyatlarimizni, boy tariximizni, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi noyob, nodir eksponatlar bilan muzey ekspozitsiyalari boyitildi. Shuningdek, muzeylarni jahon standartlariga moslashtirish, jahonga tanitish, ulardan yoshlarimiz ongida milliy g‘urur va iftixor, milliy g‘oyaning o‘rin olishida muhim omil bo‘lishi, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishga alohida e’tibor berildi. Binobarin, yosh iqtidorlarni tarbiyalash bugungi kunda barcha sohalar uchun eng asosiy ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Shu o‘rinda o‘quvchi yoshlarda iqtidor ko‘nikmasini yuzaga chiqarish va shakllantirishda muzeylarning o‘rni va roli beqiyos bo‘lib, uning ahamiyati muzey ishining takomillashuvi bilan yanada ortib bormoqda. Muzeylar o‘quvchilar iqtidorini oshirish asnosida, ularni madaniy, tarixiy meros va badiiy meros, umumbashariy qadriyatlar, o‘tmish ilm-fan yodgorliklari, xalqning turmush tarzi va an‘analari, san‘at asarlari bilan tanishtirib borishda katta ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda jahon muzeyshunosligi tajribalarini qo‘llashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentning 1998-yil 12-yanvardagi Farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjat O‘zbekistondagi muzeylar faoliyatida burilish nuqtasi bo‘lib, ularning tarixida yangi davr boshlanganini anglatadi.

«Albatta har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi».¹ O‘zbekiston Respublikasidagi muzeylar va tarixiy-me’moriy yodgorliklar millatning madaniy uyg‘onishi, milliy g‘oyani targ‘ib etish, xalq ongida milliy g‘urur va qadriyatlarni kuchaytirishda, mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik hissiyatini, demokratiya va taraqqiyotga ishonchni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Muzeylar nafaqat tabiat va jamiyatning noyob hamda xilma-xil ashyolari xazinasini, muhim ilmiy, ma’rifiy-tarbiyaviy, ijtimoiy kommunikatsiyaning muhim halqasi va markazlari hamdir. Ana shu, xalq madaniyatining o‘ziga xos ifodasi bo‘lgan ma’naviyat o‘choqlari, o‘quvchi yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutgani holda, ularda iqtidor va qobiliyatlarni shakllantirishning asosiy omillaridan ekanligi bugungi kunda soha mutaxassislari tomonidan yetarli baholanmog‘i hamda ilmiy asoslanishi dolzarb masala sifatida e’tirof etilishiga zarurat mavjud. Ushbu monografiya ana shu zarurat natijasi o‘laroq tayyorlandi deyishga bir qator asoslarimiz mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi, Termiz arxeologiya muzeyi va boshqa qator yangi muzeylar tashkil etildi. Mavjud muzeylarning ilmiy konsepsiyasi milliy g‘oya asosida qayta tuzilib, ekspozitsiyalari takomillashtirildi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 17 ta tarix, 27 ta o‘lkashunoslik, 10 ta badiiy, 24 ta memorial, 8 ta adabiyot, 4 ta aniq fanlar muzeylari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularda o‘zbek va jahon xalqlari tarixi va madaniyatiga doir jami 1602280 dan ortiq turli eksponatlar saqlanadi². Respublikada mustaqillik yillarida muzeylarning faoliyatini har tomonlama o‘rganish va tahlil etish ham muzey ishi

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: O‘zbekiston. 1998. – 32-b.

²O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi O‘zbekiston Badiiy akademiyasi D.T.KURYAZOVA O‘zbekistonda muzey ishi tarixi Oliy O‘quv Yurtlari uchun O‘quv-Uslubiy qo‘llanma Toshkent-2010-y. 1-b.

hamda muzeyshunoslikning dolzarb va istiqbolli ilmiy yoʻnalishini tashkil etadi.

1991-yilgacha Oʻzbekiston muzeylari faoliyati mustaqillik davri gʻoyalariga zid holda oʻrganilgan, mavjud adabiyotlar va uslubiy qoʻllanmalardagi maʼlumotlar esa tarqoq holda, muzeylar haqidagi maʼlumotlar yetarlicha emas va cheklangan miqdorda boʻlgan. Shuningdek, muzeylarning faoliyati keng ommaga atroflicha yetkazib berilmagan. Foydalanilayotgan darsliklar va oʻquv qoʻllanmalar mazmun jihatdan eskirgan, koʻpchiligi zamon talablariga javob bermaydi va rus tilida yozilgan. Ushbu masala bugungi kunda fundamental tadqiqot sifatida oʻrganilmagani bilan ustuvor va dolzarbdir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov taʼkidlaganidek, «Oʻz tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yoʻq. Bu haqiqat kishilik tarixida koʻp bora oʻz isbotini topgan»³. Tarix saboqlari inson uchun namuna boʻladi, taʼlim -tarbiya beradi. Tarix saboqlari xalqni hushyorlikka, oʻz ozodligimiz, istiqlolimizni koʻz qorachigʻidek asrashga undaydi. Bu borada yurtboshimizning quyidagi fikrlari juda oʻrinlidir: «Modomiki oʻz tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib boʻlmas ekan, biz haqiqiy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirishimiz, yana bir bor qurollantirishimiz zarur».⁴

Mustaqillik sharofati bilan oʻzbek xalqi ong-u shuurida madaniy, maʼnaviy, axloqiy, milliy qadryatlarni qayta tiklash va rivojlantirish uchun keng koʻlamli imkoniyatlar yaratildi. Chunki Oʻzbekiston oʻz mustaqilligini va ozodligini qoʻlga kiritgach, oʻtgan yigirma ikki yil ichida oʻz taqdirini oʻzi hal qilish sharafiga ham ega boʻldi, oʻz tarixiga, oʻziga xos milliy madaniyatining chinakam sohibiga aylandi. Davlatimiz tomonidan maʼnaviyatga ustuvor davlat siyosati darajasi berilishi buning yaqqol dalilidir. Maʼnaviy va madaniy hayotni aniq yoʻlga solmay turib, kelajakni orzu qilish mushkuldir. Zero, Prezidentimiz taʼkidlaganidek, «Biron bir jamiyat maʼnaviy imkoniyatlarini, odamlar ongida maʼnaviy va

³ Karimov I.A. «Yuksak maʼnaviyat-engilmas kuch». T. Maʼnaviyat. 2008 y. 4-b.

⁴ Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq». T. Oʻzbekiston. 1998-y. 25-b.

axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi».⁵ Shu jihatlarni hisobga olib, istiqbolning ilk kunlaridan boshlab ota-bobolarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan beqiyos ma’naviy va madaniy merosni tiklab, xalqqa in`om etish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan g‘oyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi.

O‘zbek xalqining ma’naviy sarchashmalari juda qadim – qadimlarga borib taqaladi. Yurtboshimiz ham buni bir necha bor ta’kidlab,»Xalqimizning ma’naviy poydevori - bo‘lajak davlatimizning tayanchlari juda qadimiy va mustahkam»⁶, - degan. Tarixdan ma’lumki, bizning yurtimiz farzandlari bo‘lgan jahon fani va madaniyatiga, ilmiga o‘zining buyuk xizmatlari bilan hissa qo‘shgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlarning, islom ilmi daholari Ismoil Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin al-Marg‘iloniy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband, Xo‘ja Ahror Valiylarning qoldirgan bebaho merosi, jahon ilmu-fani durdonasiga aylanib qolgan asarlari bugungi kunda mustaqillik sharofati bilan juda ko‘p nusxada chop etilib, xalqqa in`om etildiki, xalqimiz ularni ko‘z qorachig‘idek asrab o‘rganayapti.

O‘zbek xalqining milliy qahramonlariga aylangan Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi, Alpomish dostonining 1000 yilligi, 1996-yilda UNESCO qarori bilan Amir Temurning 660 yilligi butun jahon bo‘ylab va vatanimizda keng miqyosda nishonlanishi, Amir Temur shaxsi va ma’naviyati butun insoniyatning bebaho boyligi ekanligining tan olinishi, at-Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az-Zamaxshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahovuddin Naqshbandiyning 675 yilligi, Imom al-Buxoriyning 1225 yilligi, Burhoniddin al-Marg‘iloniyning 910 yilligi, Abu Mansur Moturidiy tavalludining 1130 yilligining keng nishonlanishi, ularning haykallarini o‘rnatilishi va bebaho

⁵ Karimov.I.A «Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida». 6-jild.T. O‘zbekiston. 1998-y. 128-b.

⁶ Karimov.I.A. «O‘zbekiston: milliy istiqbol, iqtisod, siyosat, mafkura». 1-jild. T. O‘zbekiston. 1996-y. 208-b.

asarlarining chop etilishi xalqimiz orasida iymonli, diyonatli kishilarning ko‘payib borayotganligidan dalolat beradi.

Vatanimiz ozodligi uchun kurashib, qatag‘on qurboniga aylangan Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy singari jadidchi ma‘rifatparvarlarning boy ma‘naviy merosi ham xalqqa qaytarilib, ularning nomlari qayta e‘zozlandi. Bularning barchasi o‘zbek xalqi ruhiyatini milliy iftixor, vatanparvarlik tomon o‘zgartiradiki, bu esa xalq ruhi kuch-qudratining birinchi va eng asosiy belgisidir. Zero, yurtboshimiz ham, «O‘zbek xalqi ruhining tiklanishi, millat ma‘naviy-axloqiy ideallarining shakllanishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan hodisadir. O‘zbekistonda yashayotgan xalqlar, o‘ziga xoslikni yo‘qotmagan holda, umumiy ruhiyatga, xulq-atvor falsafasiga ega bo‘lmoqdalar. Bu esa mustaqillik yillari mobaynida millatlararo totuvlik manbai bo‘lib kelgan yagona ma‘naviy- ruhiy negizni vujudga keltirdi»⁷, deb ko‘rsatib o‘tadilar.

Boy va ko‘p qirrali o‘tmish madaniy merosimizni qayta o‘rganish va tiklash ishlari bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov rahbarligi va tashabbusi ostida amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, madaniyat va san‘atga alohida e‘tibor berilmoqda. Bu borada Prezidentimizning bir qator farmonlari e‘lon qilindi. Fikrimizning isboti sifatida, ko‘rsatish zarurki, 1998-yil 12- yanvarda «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida»⁸ gi farmoni qabul qilindi. Ana shu farmondan kelib chiqqan holda 1998-yil 5-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Muzeylar faoliyatini qo‘llab quvvatlash masalalari to‘g‘risida»⁹ gi qarori mamlakatimizda muzey ishini rivojlantirish istiqbolini belgilab berdi. Muzeylar faoliyatini moddiy jihatdan qo‘llab quvvatlash maqsadida 1998-yilda «O‘zbekmuzey» respublika jamg‘armasi tuzildi. Aholining muzey-shunoslik madaniyatini oshiruvchi «Moziydan sado» jurnali ta‘sis

⁷ Karimov.I.A. «Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida». 6-jild.T. O‘zbekiston. 1998-y. 128-b

⁸O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni. 1998-yil 12-yanvar // Xalq so‘zi, 1998-yil 13-yanvar.

⁹O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-martda qabul qilingan «Muzeylar faoliyatini tubdan qo‘llab-quvvatlash masalalari to‘g‘risida»gi qarori // Xalq so‘zi, 1998-yil 15-mart.

etildi. «Faqat 1999-yilda muzeylarning asosiy fondi 7544 ta tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan boyidi».¹⁰

O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov yoshlar tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratish zarurligini uqtirib o‘tganlar: «Biz yoshlarimizni hech kimga berib qo‘ymaymiz, ularni o‘zimiz tarbiya qilamiz, chunki ular mustaqil Vatanimizning, erksevar xalqimizning porloq kelajagi uchun mehnat qiladi».¹¹

Natijada, qisqa muddatda mamlakatimizda juda ko‘p ishlar qilindi va bularning barchasi davlatimizning jahon hamjamiyatidagi o‘ziga xos o‘rnini egallashi, boy madaniy merosimizni tiklash, yot fikrlar va manfaatlarga qaramay o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlash, yoshlarda o‘z xalqi uchun, uning boy tarixi uchun iftixor hissini tarbiyalash hamda kelajak avlodlar oldida tinchlik va barqarorlikni saqlash, jamiyatning olg‘a rivojlanishi uchun mas‘uliyat hissini paydo qilish imkonini beradi.

«Yoshlar uchun haqiqatni yolg‘ondan ajrata bilish, milliy iftixor tuyg‘usi boshqa kishilarga nisbatan takabburlikka hamda kekkayishga aylanib ketmasligiga qarash muhim. O‘tmishni bilish - bo‘lib o‘tgan voqealarni, tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan meros va qadriyatlarni xotirada tiklashgina emas, balki tarixiy voqealarni chuqur tahlil etib, xulosalar chiqarish, istiqlol yo‘lida keng foydalana olishdir».¹²

Tanlab olingan rivojlanish yo‘lining to‘g‘riligi ham shunga bog‘liq, chunki «o‘z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo‘limizni tanlab olish respublikaning qat‘iy pozitsiyasidir».¹³ Madaniy merosni tiklash, yoshlarimizda o‘z buyuk ajdodlarimizga, ular merosiga nisbatan iftixor tuyg‘usida tarbiyalash masalalari biz ilmiy tadqiqotchilar oldida turgan masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Buyuk davlat to‘g‘risidagi orzu haqiqatga aylanishi uchun sharoit faqat shunday yondashuv yaratishi mumkin. Madaniy meros, O‘zbekistonning tarixi doimo jahon sivilizatsiyasining bir qismi bo‘lib kelgan. Shu bois mamlakatimizning rivojlanishini

¹⁰ Q.Usmonov «O‘zbekiston tarixi milliy istiqlol davri». T. O‘qituvchi. 2008-y. 233-b.

¹¹ Karimov.I.A.»Tanlagan yo‘limizdan bizni hech kim qaytara olmaydi»; Karimov.i.A «Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz». 7-jild.T.O‘zbekiston.1999-y.337-b.

¹² Yusupov,E.Abduraxmonov,F.»Ma’naviy kamolot-mustaqil taraqqiyotning asosiy omili». T.Akademiya 1999-y. 27-b.

¹³ Karimov.I.A.»O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li»;Karimov.I.A. «O‘zbekiston:milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». 1-jild.T.O‘zbekiston.1996-y.40-b.

jahon madaniyati nuqtayi nazaridan, jahon taraqqiyotining global tamoyillari negizida ko‘rib chiqish zarur. O‘z madaniyatini bilish-o‘z xalqining madaniy merosini bilishdir. O‘z madaniyatimizni, madaniy merosimizni qanchalik yaxshi bilsak, jahonda o‘zimizni shunchalik yaxshi anglaymiz, muayyan millatga, madaniyatga mansubligimizdan shunchalik ko‘p iftixor his etamiz. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek: «Kim bo‘lishidan qat’i nazar, jamiyatning har bir a’zosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo‘ldan urish, har xil aqidalar ta’siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi».¹⁴ Madaniy merosni bilish o‘tmish to‘g‘risidagi tasavvur bo‘lib, o‘tmish tajribasini hozirgi zamonda ishga solish imkoniyatini yaratadi.

Mustaqillik yillarida davlatimizda muzey ishlariga har qachongidan ham alohida e’tibor berilib, davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, ularning qonuniy faoliyat yuritishi uchun to‘la huquqiy manbalar yaratildi. Mustaqil O‘zbekiston jahon mamlakatlari orasida o‘ziga xos sharq madaniyatini mujassam etgan qadimiy sivilizatsiya makonlaridan biri hisoblanadi.

XX asrning oxiri - XXI asr boshlaridan boshlab dunyo mamlakatlarida ijtimoiy – madaniy hayot o‘tmish qadriyatlarini o‘zlarida qadriyat sifatida saqlay olgan va ularni hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan informatsion makonga moslasha oladigan mamlakatlarning mavqei ortib bormoqda. Madaniylik tushunchasining yangi qamrovli mohiyatlardan biri, o‘zidan oldin o‘tgan madaniyat ildizlarini saqlay bilishdan iborat.

Dunyoda qadimiy tarixga ega bo‘lgan davlatlar ko‘p va ularda madaniyat ildizlarini anglab olish uchun muzeylarning o‘rni beqiyosdir. Ko‘pgina mamlakatlar umumjahon turizm tizimida o‘zlarining o‘ziga xos belgilariga ega. Masalan, qadimgi dunyo madaniyati markazlaridan biri hisoblangan qadimgi Misr sivilizatsiyasini «Piramidalar» ramziy belgisi bilan izohlasak, Qadimgi Rim imperiyasi tarixi va madaniyati tarixini qadim «Kolizey» timsoli bilan; Rus davlatining timsoli «Kreml» hisoblanadi; qadimiy Samarqandning timsoli sifatida esa «Registon» maydonini

¹⁴Karimov.I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q». Karimov I.A.»Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz» 7-jild. T. O‘zbekiston.1999-y.137-b.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/uz/asar/3985> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/3985> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3985>